

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari .....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni.....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

## ANKLAV HUDUDLARNI GEOGRAFIK TADQIQ ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ АНКЛАВНЫХ ТЕРРИТОРИЙ

## CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR GEOGRAPHICAL RESEARCH OF ENCLAVE AREAS

Toshpo'latov Abduqodir Maxammadjon o'g'li<sup>1</sup><sup>1</sup>Andijon davlat universiteti tayanch doktorantiJumaxanov Shavkatjon Zairjanovich<sup>2</sup><sup>2</sup>Namangan davlat universiteti  
geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.d. (DSc)**Annotatsiya**

Mazkur maqolada mamlakatlar o'rtasidagi o'ziga xos chegaralanish hosilasi bo'lgan anklav hududlarni geografik jihatdan tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari keltirilgan. Bunda anklav hududlar geografik kategoriya ekanligini inobatga olgan holda, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning mazkur yo'nalishda olib borgan izlanishlari natijasi tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahlilidan olingan xulosalar asosida anklav hududlar bilan bog'liq jarayonlar vektorli munosabatlarga ajratilgan hamda metodologik jihatlari yoritib berilgan.

**Аннотация**

В данной статье представлены теоретические и методологические основы географических исследований анклавных территорий, являющихся результатом своеобразного разграничения стран. Учитывая, что анклавные регионы являются географической категорией, проанализированы результаты исследований, проводимых зарубежными и отечественными исследователями в этом направлении. На основе выводов, полученных в результате анализа научной литературы, процессы, связанные с анклавными территориями, разделены на векторные отношения и выделены их методологические аспекты.

**Abstract**

This article presents the theoretical-methodological basis of geographical research of enclave regions, which are the result of a unique border between countries. Taking into account that enclave regions are a geographical category, the results of the research conducted by foreign and local researchers in this direction were analyzed. Based on the conclusions obtained from the analysis of scientific literature, the processes related to the enclave regions are divided into vector relations and their methodological aspects are highlighted.

**Kalit so'zlar:** geosiyosat, anklav, eksklav, submilliy anklav, anklavlar tasnifi, asosiy davlat, o'rab turuvchi davlat, vektorli munosabatlar.

**Ключевые слова:** геополитика, анклав, эксклав, субнациональный анклав, классификация анклавов, основное государство, окружающее государство, векторные отношения.

**Key words:** geopolitics, enclave, exclave, subnational enclave, classification of enclaves, mainland state, surrounding state, vector relations.

**KIRISH**

Kishilik jamiyati tarkib topganidan buyon aholining hududiy joylashuvi va siyosiy tuzilma sifatida shakllanishi natijasida hudud chegaralari va ularning funksiyalari, chegara zonalaridagi siyosiy va sotsial vaziyat doimo e'tibor markazida bo'lib kelgan. Shu jihatdan, siyosiy geografik fikrlar, g'oyalar, qarashlar va tadqiqotlar bilan olimlar qadimdan shug'ullanib kelgan. Jamiyatning bu jihatlari siyosatshunoslik, iqtisod, yuridik fanlar kabi bir qancha sohalarining o'rganish obyekti hisoblansada, jamiyatning siyosiy-geografik tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlari, dunyo siyosiy xaritasining shakllanish masalalari bilan, eng avvalo, geograflar shug'ullanadi.

Siyosiy geografiya jamiyat hayotining siyosiy muhitini hududiy jihatdan tashkil etish haqidagi fandir. Ushbu fan siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar va mintaqaviy tadqiqotlarni o'rganishga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki u barcha darajadagi siyosiy jarayonlarning hududiy tuzilishi va ularning asosiy elementlari: davlatlar, chegaralar, poytaxtlar, mustamlaka va anklav hududlar, integratsion birlashma, geosiyosiy tizim va mintaqalar haqida tizimli tasavvur beradi [1; 9-b.].

Dunyo davlatlarining tashqi va ichki siyosiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiruvchi nazariyalar asosida siyosiy-geografik bilimlar yotadi. Hududiylik tamoyiliga asoslangan tahlil usullariga ega bo'lish siyosiy hodisalarning global, regional va lokal darajadagi qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Aytish mumkinki, hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri davlatlar o'rtasida o'ta keskin siyosiy kurashlar, qurolli to'qnashuvlarga sabab bo'layotgan anklav/eksklav, hududiy nizo va

chegara muammolari hisoblanadi. Hududiy nizolar va ularni bartaraf etish borasidagi xalqaro amaliyotda anklav muammolarini hal etish o'ziga xos o'rin tutadi. Dunyoda ro'y bergan va hozirgi kunda mavjud konfliktlar, davlatlararo qarama-qarshiliklarning aksariyati hududiy mojarolar bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq.

Chunonchi, bunday hududiy mojarolar anklav hududlarda yanada aniq namoyon bo'ladi. Anklav tushunchasi hududiy kategoriya sifatida o'zining qo'llanish tarixiga ega. Atamaning aynan o'zi ishlatilmasada, muayyan hududlarda anklavlarning mavjudligi haqidagi ma'lumotlar, dastlab, diniy manbalarda uchraydi<sup>8</sup>. 1526-yilgi Madrid shartnomasi esa «anklav» termini qo'llanilgan dastlabki rasmiy hujjat hisoblanadi. Ingliz tiliga «anklav» atamasi kechroq, ya'ni 1868-yilda fransuz tili orqali kirib kelgan.

Buyuk Britaniyaning Oksford izohli ensiklopedik lug'atida anklav *o'zi siyosiy jihatdan mansub bo'lgan mamlakatdan ajratilgan va butunlay chet el mulklari bilan o'ralgan hudud deya ta'riflangan* [2; 211-b.]. Shuningdek, Parij Grand Laryuss ensiklopediyasida anklavni *boshqa davlat hududida joylashgan joy yoki hudud* sifatida keng qamrovli ta'rifi mavjud [3].

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mazur maqolada monografik tahlil, tarixiy-geografik tahlil, geografik taqqoslash, tizim-tarkib kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Anklav hududlar bilan bog'liq izlanishlarda xorijiy tadqiqotchilardan M.Glassner, A.Melamid, N.Megoran, J.Mingi, S.Nis, I.Sidentop, H.Katudal, P.Raton, G.Robinson, B.Uayt, D'Olivye Farran, A.Taylor, M.Piyetkivicz, J.Preskott, B.Fazandeiro va boshqalar atroficha izlanish olib borishgan [4].

Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan olimlar anklav hududlarni tadqiq etish jarayonida, asosan, ikkita – «ona davlat» va «o'rab turuvchi davlat» tushunchalaridan foydalanishgan. Ona davlat – bu anklav hududni o'zining tarkibiy qismi hisoblovchi mamlakat bo'lib, bu terminga nisbatan adabiyotlarda «markaziy davlat» (Raton, 1958) va «oilaviy davlat» (Robinson, 1959; Katudal, 1979; Uayt, 2002-2004) atamaları ham qo'llaniladi. Shuningdek, o'rab turuvchi davlatni ifodalash uchun H.Katudal 1979-yil «The Exclave problem of Western Europa» kitobida hamda B.Uayt 2002-yil «Boordering on the Ridiculous? A Comparasion of the Baarle and Cooch Behar Enclaves» maqolasida «xo'jayin davlat» atamalarini qo'llagan [5] bo'lsa, G.Robinson 1959-yil «Exclaves» maqolasida «qo'shni davlat» deb atashni tavsiya qilgan [6]. Anklav hududlarni M.Glassner [7] va J.Preskott [8] tomonidan siyosiy geografik jihatdan o'rganilganligini alohida ta'kidlash lozim. Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlarini davrlashtirish natijasida anklavlarni alohida mavzu sifatida o'rganishni ikki bosqichga ajratish mumkin. *Birinchi davr*, 1950-1960-yillarni o'z ichiga olib, mazkur bosqich geograflar (G.Robinson, A.Melamid, D.Mingi [9] va I.Sidentop [10]) hamda huquqshunoslar (D'Olivye Farran [11] va P.Raton)ning maqolalari nashr etilgan davrga to'g'ri keladi. Ularning anklav muammolariga bo'lgan qiziqishi mustamlaka imperiyalarining «ko'chki shaklida»gi parchalanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan real voqealar tufayli yuzaga kelgan.

Anklav hududlarni o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar 1970-1980-yillarda birmuncha pasaygan. H.M.Katudalning [12] ilmiy tadqiqotlarini hisobga olinmasa, ushbu o'n yillik ichida anklav muammolari bo'yicha deyarli hech qanday tadqiqotlar olib borilmagan. 1990-yillardan so'ng, ayniqsa, XXI asrning boshlarida anklav muammosiga qiziqish keskin ortadi. Bu bilan, anklavlarni o'rganishning *ikkinchi davri* boshlanadi. Mazkur ikkinchi to'lqinning ikki asosiy jihati mavjud:

*birinchi jihati* texnik xususiyatlarga ega. Anklavlarni o'rganish yuzlab va, xatto, minglab manbalarda to'planishi kerak bo'lgan keng qamrovli ma'lumotlarni talab qiladi. Global internet tarmog'i paydo bo'lgunga qadar bunday mikrohududlarga oid ma'lumotni to'plash juda murakkab bo'lgan. Jumladan, O.Katudal 1970-yillarda G'arbiy Yevropaning eksklavlari haqidagi kichik maqolasiga bir necha yil davomida vaqt sarflagan. Mazkur davrda u faqat to'rtta nisbatan taniqli va o'rganish oson bo'lgan anklavlar: Baarle, Liviya, Kampione va Byuzingen am-Xoxrayn haqida ma'lumot olishga erisha olgan, xolos. Keyinchalik, kuchli tadqiqot vositasi bo'lgan internetning paydo bo'lishi butun dunyo bo'ylab ko'plab anklavlar haqida yetarlicha ma'lumot to'plash uchun yangi imkoniyat yaratdi va tadqiqotchilar o'rtasida ma'lumot almashish jarayonini soddalashtirdi.

*ikkinchi jihati* 90-yillarning boshlarida ko'p millatli sotsialistik davlatlarning parchalanishi bilan bog'liq bo'lib, bu orqali anklavlar shakllanishini yangi to'lqini vujudga keldi. Shu davrga kelib, MDH davlatlari hududida yigirmaga yaqin anklavlar tarkib topdi. Ularning ba'zilari nisbatan katta va ahamiyatli bo'lib, anklavlarni o'tmishning «oddiy qoldiqlari» deb hisoblash mumkin emasligi

<sup>8</sup> Bibliyada ushbu atama asosiy aholisi bitta dinga e'tiqod qiluvchi manzilgohlardagi alohida diniy guruhlarini ta'riflash maqsadida ishlatilgan, – muallif.

ko'rsatib berdi. Ulardan ayrimlari, masalan, Naxichevan, Markaziy Osiyo anklavlar va Kaliningrad oblasti davlatlararo munosabatlardagi keskinlik markazlari yoki bahsli hudud o'choqlari sifatida xalqaro e'tiborni o'ziga tortdi.

O'tgan asrning 50-yillarida BMT huquqshunosi bo'lib ishlagan P.Raton anklavlar muammosiga huquqiy nuqtayi nazardan baho bergan [13]. Raton tranzitlik masalasiga ham to'xtalib, yo'lovchi va yuk tranziti anklav uchun eng muhim masala ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu muammoning eng katta ahamiyati ba'zi anklavlarning kichik o'lchamlari bilan bog'liq bo'lib, bu ularning o'zini-o'zi ta'minlashga imkon bermaydi. O'rab turuvchi davlat tomonidan anklavning blokadasini uning kundalik hayotida, shuningdek, boshqaruv masalasida jiddiy uzilishlarga olib keladi. Bu anklav iqtisodiyotiga ham jiddiy zarar yetkazishi hech kimga sir emas. Shunday qilib, tranzit huquqini tan olish anklavni o'rab turuvchi davlat tomonidan tan olinishining mantiqiy natijasidir. Bu hodisa xalqaro huquqiy servitut deb ataladi. Tranzit masalasi tarixiy an'analarga muvofiq (Kampione), konvensiyalarni qabul qilish yo'li bilan (Byuzingen, Baarle-Xertog, Lliviya va boshqalar) hamda o'zaro kelushuv yo'li bilan (Kuch-Bihar) hal qilinishi mumkin.

Nemis tadqiqotchisi S.Nis har bir anklav alohida, ammo noyob emasligini ta'kidlaydi. Nis anklavlar tipologiyasi, ularning vazifalari va xarakterli muammolarini o'rgangan. U Gibraltar, Kaliningrad, Tog'li Qorabog' va Kabinda anklavlarini alohida tadqiq etib, anklavlar hozir qaysi davlatda joylashganidan qat'i nazar, ular potensial yoki faol to'qnashuv zonalari hisoblanishini ta'kidlagan. Anklavlar uchun kirib-chiqish, siyosiy boshqaruv, iqtisodiyotining rivojlanishi, madaniy omillar kabi umumiy to'rtta muammoni alohida ajratgan [14; 394-b.].

Nyukasl universiteti Siyosiy geografiya professori Nik Megoran chegaralanishning holati davlatlar orasidagi munosabatlarga bog'liqligini ta'kidlagan hamda «Yaxshi chegara – bu xaritada texnik chiziqlar emas, siyosiy erkinlikdir» degan fikrni olg'a surgan. U 2002-2020-yillar mobaynida Markaziy Osiyo anklav hududlarining chegara muammolari bo'yicha izlanishlar olib borgan [15]. Jumladan, 2018-yili o'zbek-qirg'iz chegara zonasida bevosita tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Anklav hududlarning siyosiy va ijtimoiy holatini tahlil qilish yuzasidan MDH mamlakatlarida ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, mazkur sohaga oid izlanishlar bilan Y.Vinokurov, M.Vinogradov, S.Juravskiy, T.Zverinseva, Y.Rojkov-Yuryevskiy, V.Zaysev va boshqalar bevosita shug'ullangan [4].

Jumladan, rus geosiyosatchisi Y.Y.Vinokurov o'z izlanishlarida anklav hududlarning geosiyosiy va geostrategik jihatlari yoritib bergan [16]. Olim ilmiy tadqiqotlarida anklavlar klassifikatsiyasi va ularning turli ko'rinishlarini tahlil qilgan hamda Kaliningrad, Seuta, Melilya anklavlariga alohida e'tibor qaratgan.

M.V.Vinogradov 1918-1939-yillar oralig'ida Sharqiy Prussiyadagi anklavlarga oid geosiyosiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy holat hamda ularning siyosiy maqomini [17] tahlil etgan.

S.V.Juravskiy Kaliningrad hududi misolida anklavlarning vujudga kelishi, hozirgi holati, xo'jaligi rivojlanishining geografik tavsifi, ijtimoiy-siyosiy rivojlanish muammolarini [18] yoritib bergan.

Mavzuga oid tadqiqotlar markaziy osiyolik olimlardan A.A.Aubakirova, S.Alamanov, R.M.Alimov, S.Anvari, Y.I.Ahmadaliyev, R.Gabdulhakov, A.Jalilov, A.A.Ibragimova, A.Koychiyev, P.A.Makkambayev, V.Maslov, D.S.Muitov, S.S.Safoyev, A.S.Soliyev, M.Suyunov, O'.So'fiyev, F.F.Tolipov, A.M.Toshpo'latov kabilarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan [19].

Xususan, qirg'izistonlik mutaxassis A.Koychiyevning [20] maqolalarida o'tgan asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida milliy-hududiy chegaralanishi bilan bog'liq siyosatning oqibati sifatida Farg'ona vodiysida yuzaga kelgan anklav hududlar, u yerda istiqomat qilayotgan etnik guruhlar turmush tarzi atroflicha tahlil qilingan.

Professor Y.Ahmadaliyevning ilmiy ishlarida yagona tabiiy tarixiy hudud – Markaziy Osiyodagi anklav hududlarda yer resurslaridan birgalikda foydalanishning amaliy ahamiyati, anklav hududlar, respublikalararo foydalaniladigan yerlar va ularning joylashishi hamda yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanilishni ta'minlashning geografik jihatlari ochib berilgan [21].

Markaziy Osiyodagi anklav hududlarning shakllanish tarixi va ulardagi siyosiy vaziyat, baxsli hududlar borasida kompleks tahlil R.Gabdulhakov tomonidan amalga oshirilgan. Shuningdek, S.Anvari Tojikiston Respublikasi tashqi siyosatidagi chegara masalalari yuzasidan tadqiqot olib borgan bo'lib, unda Tojikiston–Qirg'iziston, Tojikiston–O'zbekiston o'rtasidagi delimitatsiya-demarkatsiya masalalari va anklav muammolariga alohida e'tibor qaratgan [22]. P.A.Makkambayev Markaziy Osiyo davlatlarining chegara (limologiya) muammolari va ularning huquqiy asoslarini

yoritib bergan [23] bo'lsa, O'.So'fiyev o'zining «So'xnoma» tarixiy-publitsistik risolasida Markaziy Osiyo mintaqasidagi anklavlarning eng kattasi So'xning tarixi, bugungi kuni va u yerda istiqomat qilayotgan aholining turmush-tarzi [24] atroflicha yoritib bergan.

Shuningdek, professor A.S.Soliyev ilmiy izlanishlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarining xo'jaligi rivojlanishining umumiy xususiyatlari va mintaqa mamlakatlarida vujudga kelgan geosiyosiy vaziyat tahlil qilingan [25]. Qolaversa, «Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi anklav va eksklav hududlar muammosi» maqolasida mintaqadagi geosiyosiy vaziyatga anklav bilan bog'liq jarayonlarning ta'siri tahlil qilingan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Anklav hududlar geografiyasi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslikni turli ijtimoiy-iqtisodiy geografik tamoyillar orqali yoritib berish natijasida mazmunan yaxlitlik asosida kompleks tahlil amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi. Anklav hududlarni geografik va geosiyosiy yondashish tamoyiliga ko'ra – *anklav, eksklav, asosiy davlat, o'rab turuvchi davlat* kabi kategoriyalarga ajratish mumkin (1-rasm).

*Anklav* (fransuzcha, enclave – «qulflab olish», «o'rab olish») – bu bir davlatning hamma tomondan boshqa davlat hududi bilan o'rab olingan hududi yoki hududining bir qismi hisoblanadi [26; 351-b.], ya'ni anklav – bir mamlakatga tegishli, ammo boshqa davlat chegaralari ichida joylashgan hudud hisoblanadi [27; 84-b.]. Chunonchi, San-Marino Italiya Respublikasining ichida, ya'ni hamma tomondan uning hududi bilan o'ralgan davlat.



1-rasm. Anklav hududlarning namoyon bo'lish shakllari


Keng ma'noda, anklav – ma'lum bir hudud, predmet, guruh yoki qandaydir hodisaning atrof-muhitdan ajratilganlik holatini ifodalaydi. Jumladan, bu atama siyosat va geografik fanlardan tashqari ko'p sohada o'ziga xos ma'nolarda qo'llaniladi hamda, odatda, bu atama o'rganilayotgan sohadan alohida qism (begona fragment)ning ma'lum bir muhit ichida mavjudligini ifodalash uchun ishlatiladi. Geologiya sohasida «anklav» atamasi alohida jins fragmentlarini aniqlashda qo'llaniladi.

Cherkov huquqida «anklav» atamasi an'anaviy ravishda uchrab turadigan boshqa yeparxiya bilan o'ralgan yeparxiya hududini boshqa hududdan ajratishda qo'llanadi. Iqtisodiyotda ushbu atama xorij kapitali ustun bo'lgan milliy iqtisodiyot doirasidagi (masalan, Afrika va Janubiy Amerika davlatlarida shakar ishlab chiqarish sohasi) sanoat sohasiga nisbatan qo'llanadi. Ushbu atama sotsiologiya hamda boshqa ijtimoiy fanlar doirasida o'rab turgan hududdan milliy, siyosiy, sotsiomadaniy yoki boshqa xususiyatlar bo'yicha ancha farqlanadigan zich aholi punkti ma'nosida keng ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda zich aholi punktlardagi alohida etnik va diniy guruhlarini ta'riflash maqsadida ishlatilgan «etnik» yoki «diniy» anklavlar terminlarini ko'p uchratish mumkin. Mazkur atama boshqa davlatlardagi xitoyliklar alohida yashaydigan kvartallardan to gettolargacha bo'lgan manzilgo'lar, shaharchalar tuzilishini o'rganishda muhim ahamiyatga ega [16; 12-b.]. Bundan tashqari xorijda ushbu atama harbiy sohada, qishloq xo'jaligi ishlarida hamda yerlar chegaralarini belgilash borasida va sanoatda keng qo'llaniladi.

*Anklav* geografik kategoriya sifatida boshqa davlat hududi bilan o'ralgan asosiy davlat hududining bir qismi hisoblanadi. Hudud tushunchasi o'z tarkibiga faqat quruqlik hududini emas,

balki hududiy suvlarni ham oladi. Anklav muayyan bir davlat hududining boshqa bir yoki bir necha davlatning quruqlik hududi bilan butunlay qurshab olingan qismi bo'lib, u o'zi tegishli davlat hududining ajralmas qismi hisoblanadi.

Anklavlar hududiy bo'shliqda emas, ular manfatlari turlicha mamlakatlar bilan o'rab olingan bo'lib, ko'pincha ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Anklavlikni asosiy davlat va o'rab turuvchi davlat munosabatlari kesishgan hudud shakllantiradi. Bu ikki tomon MES anklavlar uchburchagi (*mainland state*: asosiy davlat + *enclave*: anklav + *surrounding state*: o'rab turuvchi davlat) sifatida taqdim etiladigan konseptual uchburchakning tarkibiy qismidir (2-rasm).



**2-rasm.** Anklav hududlardagi to'rt tomonlama aloqalar

Bu nazariya anklavlarni o'rganish uchun konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, «MES uchburchagi» to'rt vektordan iborat:

- birinchisi – asosiy davlat va anklav o'rtasidagi munosabatlar;
- ikkinchisi – anklav va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi munosabatlar;
- uchinchisi – asosiy va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi munosabatlar;
- to'rtinchisi – asosiy va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi bevosita anklavga tegishli

masalalar bo'yicha munosabatlar.

Uchburchakni tashkil etuvchi vektorlar ikki tomon (asosiy davlat va o'rab turuvchi davlat)ga qaratilgan bo'lib, bu tomonlarning o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Biroq, bu ta'sir ularning kuchlari bilan to'g'ri proporsional emas. Odatda, asosiy davlat anklav ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Asosiy davlat va anklavning siyosati anklav moslashishi kerak bo'lgan vaziyatni belgilaydi. Bundan tashqari, o'rab turuvchi davlatning iqtisodiy va siyosiy ta'siri ham anklav hayotida muhim ahamiyatga ega. Shunga qaramay, anklav qanchalik kichik va ahamiyatsiz bo'lishidan qat'i nazar, u asosiy va o'rab turuvchi davlat hamda ularning ikki tomonlama munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi nazariya asosida ularning o'zaro munosabatlari (MES)ni quyidagi to'rt vektor asosida tavsiflash mumkin:

1. *Asosiy davlat va anklav (M + E) o'rtasidagi munosabatlar.* Anklav nuqtayi nazaridan, bu vektor eng muhim hisoblanadi. Odatda, bu munosabatlar zanjiri anklavning iqtisodiyoti va siyosatini belgilab beradi. Shu bilan birgalikda, asosiy davlatning ajralmas qismi bo'lgan anklav uning siyosiy va huquqiy tizimiga bo'ysunadi. Asosiy davlat anklav hududga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, asosiy davlat anklavni maxsus vakolat bilan ta'minlashi mumkin. Siyosiy nuqtayi nazardan, anklavning siyosiy vaziyati ona davlatni havotirga soladi. Bu, ko'pincha, mamlakatda chiqarilgan siyosiy qarorlar va rivojlanish konsepsiyasiga ta'sir qiladi. Misol uchun, anklavni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish yoki mahalliy hokimiyatning ayrim cheklovlari ona davlatning anklav ustidan to'liq nazoratini ta'minlash uchun qo'llaniladi:

*Birinchidan*, markaziy hukumat anklavni boy berishdan xavotirda bo'lib, bu asosiy davlat uchun salbiy «rag'bat» bo'lib xizmat qiladi. *Ikkinchidan*, anklavlarni markaziy hukumat oldida sezilarli darajada muhim ahamiyatga ega bo'lgan muayyan strategik, harbiy-strategik va geosiyosiy sabablar mavjud bo'lib, bu ijobiy «rag'bat»ni shakllantiradi. Ushbu yuqoridagi ikki omil, odatda, markaziy hukumatning har qanday holatda ham anklavni saqlab qolish istagi borasida yetarlicha «vazn»ga ega.

2. *Anklav va o'rab turuvchi davlat (E + S) o'rtasidagi munosabatlar.* Asosiy davlat anklavga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishiga qaramasdan, o'rab turuvchi davlatning ta'sir doirasi ham o'ziga xos



kuchga ega bo'ladi. Binobarin, o'rab turuvchi davlatning ta'siri sust yoki faol bo'ladi. Xususan, o'rab turuvchi davlatning anklavga nisbatan hatti-harakatlari asosiy davlat tomonidan anklavni suverenitet jihatdan qo'llab-quvvatlanishi natijasida ma'lum cheklanishga uchraydi. Shved olimi Rudolf Chellen davlatni bir butun organizmga qiyoslaydi. Shu xususida, asosiy davlat yaxlit vujud bo'lsa, «mitti»gina hududiy birlik – anklav u uchun «tirnoqqa kirgan zirapcha» tusiga kiradi.

Asosiy va o'rab turuvchi davlat munosabatlari qaltis geosiyosiy vaziyat bo'lib, anklavlar muammosi ba'zan «yara ustiga chipqon» bo'lishi mumkin. Bu geografik joylashuv tufayli harbiy-strategik rejada tashvishlanish uchun sabab bo'ladi. Bundan tashqari, huquqiy rejimlarning farqlari, kontrabanda qilish imkoniyatlari, chegaralarni saqlash xarajatlari va boshqalar asosida ba'zi iqtisodiy muammolar shakllanadi.

3. *Asosiy va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi (M + S) munosabatlar* anklavga oid masalalar bo'yicha umumiy aloqalarni aks ettiradi. Anklavdagi farovonlik va tartib-qoidalar, asosan, asosiy va o'rab turuvchi davlatlar munosabatlariga bog'liq. Agar bu munosabatlar anklavga bevosita aloqador bo'lmagan masalalar bo'yicha yomonlashsa ham, anklavga salbiy bosim kuchayadi. Ya'ni asosiy va o'rab turuvchi davlatlarning anklavga aloqasi yo'q jarayonlarda ham o'zaro munosabatlarining salbiylasha borishi anklavga kirib-chiqish va undagi vaziyatlarni keskinlashuviga olib keladi. Aksincha, davlatlar o'rtasidagi tinch va do'stona munosabatlar anklav uchun qulay muhit yaratadi.

4. *Asosiy va o'rab turuvchi davlat o'rtasidagi bevosita anklavga tegishli masalalar bo'yicha munosabatlar (M + E + S)*. To'rtinchi vektor o'zidan avvalgi munosabatlarga nisbatan yaqqol namoyon bo'lmasa-da, alohida ahamiyatga ega. Asosiy davlat tomonidan milliy siyosatdagi anklavlarga berilgan e'tibor ularning hududiy xususiyatlariga qaratilgan bo'lib, anklavdagi aholi soniga teskari proporsional bo'lishi mumkin. Xususan, ayrim anklav hududlar «demografik yuk»ga ega bo'lmasa-da, hududiy birlik sifatida geostraterik ahamiyatga ega bo'ladi [19].

Xalqaro geosiyosiy munosabatlar jarayonida o'rab turuvchi davlat tomonidan anklav hududdan foydalanib, u tegishli bo'lgan mamlakatga bosim o'tkazish holatlari ham kuzatilib turadi. Biroq shunday anklav hududlar ham borki, ularning hududiy joylashuvidan o'rab turuvchi davlat emas, aksincha, ona davlat o'z maqsadlarida foydalanadi. Bunda asosiy va o'rab turuvchi davlatlar anklav hududdan geosiyosiy jarayonlardagi «katta o'yin»da qurol sifatida foydalanadi.

*Eksklav*. Ushbu atama anklavlarga nisbatan ishlatilsa-da, mazkur tushunchalar aynan bir ma'noga ega emas. Binobarin, anklav ham, eksklav ham ayni bir geografik borliq, hudud hisoblanadi. Biroq, anklav boshqa bir geografik borliq bilan o'rab olingan kenglikni anglatsa, eksklav hudud o'zi tegishli bo'lgan davlat tomonidan qo'llaniladi. Eksklav so'zining ma'nosi anklavning mantiqan kengaytirilgani bo'lib, lotincha «exo» – tashqi, «claves» – o'rab olingan, ya'ni «hududdan tashqaridagi va boshqa davlat o'rab olgan yer» ma'nosini bildiradi.

Demak, ajralib qolgan hudud joylashuviga ko'ra anklav bo'lsa, tegishliligiga ko'ra eksklav hisoblanadi. Masalan, Vorux – Tojikiston Respublikasiga tegishli bo'lsa-da, Qirg'iziston Respublikasining ichida joylashgan. Bunda u Tojikiston uchun eksklav, Qirg'iziston uchun anklav bo'ladi.

Asosiy davlat ham, eksklav hudud ham bir mamlakatning hududiy qismlari hisoblanadi. Ularning qaysi biri asosiy davlat, qaysi biri esa eksklav ekanlini nazariy jihatdan isbotlash lozim bo'lsa, bunday holatda asosiy davlat va eksklav hududni belgilashdagi hal qiluvchi mezon nima bo'lishi mumkin? Jumladan, Y.Y.Vinokurov uchta nazariy mezonga ajratib tadqiq etishni taklif qilgan: birinchidan, *poytaxtning joylashuvi*, ikkinchidan, *hududning nisbiy o'lchami* va, uchinchidan, *aholining nisbiy soni*. Amaliyotda xalqaro huquq konvensiyasiga rioya qilgan holda, poytaxt joylashgan hududni aholi soni va hududiy o'lchamidan qat'i nazar, asosiy davlat sifatida belgilash afzal ko'riladi. Bunga asosiy sabab davlat hokimiyatining markazda to'planishidir.

Yuqorida qayd etilganidek, hududlar maqomini belgilashda bunday chigal holatlar kamdan-kam bo'lsada uchrashi mumkin. Masalan, 1947-yilda vujudga kelgan Pokiston davlati aholisining yarmidan ortiq qismi istiqomat qilgan Sharqiy Bengaliya hududi Bangladesh davlati mustaqilligi e'lon qilingan 1971-yilgacha Pokiston eksklavi hisoblangan. Mamlakatning g'arbiy qismida davlat poytaxti va ma'muriy boshqaruv vakolati to'planganligi sababli Pokistonning g'arbiy qismi Sharqiy Bengaliyaga nisbatan asosiy davlat sifatida qaralgan.

*Asosiy davlat*. Anklav hududlar ma'muriy jihatdan o'zi tegishli bo'lgan hududdan ajralib qolib, bunda uni o'zining tarkibiy qismi deb bilgan davlat – asosiy davlat hisoblanadi. Ko'plab olimlar, xususan, G.Robinson [6], M.Katudal [12], B.Uayt [5] kabilar asosiy davlatni «oilaviy davlat» deb nomlasa, P.Raton [13] «markaziy davlat» deb ifodalashni afzal ko'radi. Masalan, Liviya



Fransiya uchun anklav bo'lib, Ispaniyaning eksklavidir. Demak, mazkur eksklav uchun asosiy (oilaviy yoki markaziy) davlat Ispaniya hisoblanadi.

*O'rab turuvchi davlat.* Anklavlar hududiy jihatdan asosiy davlat bilan tutashmagan bo'lsa, tabiiyki, boshqa davlat hududining ichida joylashgan bo'ladi. Bunda o'rab turuvchi davlat – anklavni har tomondan o'ragan, lekin ushbu hudud unga tegishli bo'lmagan mamlakatdir. Shuningdek, o'rab turuvchi davlatni ifodalash uchun M.Katudal 1979-yil «The Exclave problem of Western Europa» kitobida hamda B.Ujyt 2002-yil «Boordering on the Ridiculous? A Comparasion of the Baarle and Cooch Behar Enclaves» maqolasida «xo'jayin davlat» atamalarini qo'llagan bo'lsa, G.Robinson 1959-yil «Exclaves» maqolasida «qo'shni davlat» deb atashni tavsiya qilgan.

Anklav hududlarning rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, ko'pincha, o'rab turuvchi davlatga bog'liq bo'ladi. Agar xo'jayin davlat o'z hududidan kapital aylanishiga to'sqinlik qilsa, anklav izolyatsiyalangan hududga o'xshab qoladi. Masalan, Shohimardon O'zbekiston hududi, lekin Qirg'iziston ichida joylashgan anklav bo'lib, ikki mamlakat o'rtasidagi chegaraviy muammolar tufayli unga kirib-chiqish juda murakkablashib, chegaralar bir vaqtlar minalashtirilgan edi.

Asosiy davlatdagi qarindosh-urug' yoxud tuman markaziga borib-kelishdagi qiyinchiliklarni kuzatgan holda, eksport-import aloqalarining naqadar qiyinchilik bilan amalga oshganini sezish qiyin emas. Oqibatda, anklav tashqi dunyodan uzilib qolgan, usti yopiq qozon ichidagi hududga o'xshab qolgan edi. Endilikda davlatlararo munosabatlarning iliqlashuvi natijasida chegaralar ajratish emas, bog'lash vazifasini o'tamoqda va ko'plab bojxona o'tkazish postlari o'z faoliyatini tikladi.

### XULOSA

Demak, anklav hududlarning mavjudlik muammosi jahon bo'yicha mintaqaviy xususiyatga ega. Anklavlardagi mavjud hududiy muammolar bu «mitti» hududlarni «ulkan strategik tugun»larga aylantiradi. Bu «tugun»larni shakllantirgan jihatlarni o'rganish anklavlar geografiyasining fundamental asosi hisoblanadi. Bu borada xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmalarini o'rganib borish «kalavanning uchi»ni topishda o'ziga xos qo'llanma bo'ladi.

Anklav hududlar biror bir siyosiy borliq – davlatga tegishli bo'ladi. Qolaversa, amaliyotda shunday anklavlar ham mavjudki, ularning o'zi to'raligicha alohida ma'muriy boshqaruvga ega. Bunday anklavlarni – submilliy anklav hududlar deb ataladi hamda ularning o'zi mustaqil tuzilma bo'lgani uchun tashqi siyosati, iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarini keng yo'lga qo'yishda integratsion qo'shnihilik aloqalarini amalga oshirilishi eng maqbul jarayondir. Shu jihatdan, anklav hududlarga zamonaviy siyosiy geografiya fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qarash mumkin.

Umuman olganda, anklav hududlarga oid muammolar yechimining ideal modeli ichki nizolar va qarama-qarshiliklardan holi, o'zaro manfaatlar va ustuvorliklar bilan birlashtirilgan, asosiy va o'rab turuvchi mamlakatlar uchun umumiy qadriyatlar va an'analarga asoslangan mustahkam va yaxlitlikni yaratish hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo'latov A.M. Siyosiy geografiya / Muharrir: N.Q.Komilova. – Namangan: "Noshir", 2022. – 234 b.
2. Oxford English Dictionary / Encyclop. & dictionaries, № 5. – London, 1988. – P. 211.
3. Grand Larousse Universel / Encyclopedias and dictionaries, № 6. – Paris, Larousse, 1994. – P. 373. ISBN: 2-03-102330-6.
4. Тошпўлатов А.М. Анклав/экслав ҳудудлар: географик ва геосиёсий таҳлил // NamDU iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi, №3 / Bosh muharrir: S.T.Turg'unov. – Namangan, 2023. – B. 290-296.
5. Whyte R.B. An historical and documentary study of the Cooch Behar enclaves of India and Bangladesh [Book] / Editor: Sudhir Roy. – Melbourne: "Posterra crescam laude", 2002. ISBN: 0-734-022-0-85.
6. Robinson G.W. Exclaves // Annals of the Association of Americal Geographers, 1959. – Pp. 283-295.
7. Glassner M.I. Political Geography. – New York: "Wily", 1996. – P. 744.
8. Prescott J. Political Frontiers and Boundaries. – London: «Unwin human», 1987. – P. 332.
9. Minghi J.V. Point Roberts, Washington – the problem of an American enclave // Association of Pacific Coast Geographers, 1962. – Pp. 29-34.
10. Siedentop I. Büsingen und Verenhof in der Schweiz. – Frankfurt: "Verlag Moritz Dietsterweg", 1938.
11. D'Oliver F. International Enclaves and the Question of State Servitudes // in International and Comparative Law Quarterly, 1955. №4. – Pp. 297-307.
12. Catudal H.M. The Exclave problem of Western Europa. – The USA: «University of Alabama Press», 1979.
13. Raton P. Les Enclaves // Annuaire français de Droit International, 1958. – Pp. 186-195.
14. Nies S. Eine ungewönlich gewönliche Enklave // Osteuropa, №53. – Kaliningrad, 2003. – Pp. 394-409.
15. Мегоран Н. Центральная Азия: Безопасность и опасности // Центральная Азия и Кавказ, т. 14, № 3. – Швеция, 2011. – Стр. 7-21.
16. Винокуров Е. Теория анклавов. – Калининград: "Терра Балтика", 2007. – 342 с.

17. Виноградов М.В. Восточнопруссский анклав в межвоенный период (1918-1939) // Автореф. дисс... на соис. учен. степ. д-ра. ист. наук. – Санкт-Петербург, 2003. – 24 с.
18. Журавский С.В. Российский анклав: Возникновение, состояние и тенденции социально-политического развития (на примере Калининградской области РФ) // Автореф. дисс... на соис. учен. степ. кан. полит. наук. – Москва, 2000. – 32 с.
19. Jumaxanov Sh.Z. Markaziy Osiyo anklav/eksklav hududlarini iqtisodiy geografik va siyosiy geografik tadqiq etishning metodologik asoslari // g.f.d. (DSc) ilmiy dar. olish uchun taqdim. et. diss. – T., 2023. – 65 b.
20. Койчиев А. Национально-территориальное размежевание в Ферганской долине (1924-1927). – Бишкек, КГУ, 2001.
21. Ахмадалиев Ю.И., Қўзибоев Ҳ.С. Анклав ҳудудларда ер ресурсларидан фойдаланишнинг амалий аҳамияти // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar, №10. – Pp. 180-186, 20.08.2022.
22. Сафари А. Масъалаҳои сарҳадӣ дар сиёсати хориҷии ҷумҳурии Тоҷикистон // 07.00.15 : Таърихи муносибатҳои байналмилалӣ ва сиёсати хориҷӣ (илмҳои таърих): Диссертация / Таърих. - Душанбе, 2020. – 193 с.
23. Маккамбаев П. Правовой режим государственной границы Республики Узбекистан и проблемы его совершенствования // Автореф. дисс... на соис. учен. степ. кан. юрид. наук. – Т., "УМЭД", 1997. – 25 с.
24. Сўфиев Ў. Сўхнома. – Фарғона: «Фарғона», 2013. – 124 б.
25. Солиев А.С., Жумаханов Ш.З., Мирзаахмедов Х.С. Марказий Осиё мамлакатларидаги анклав ва эксклав ҳудудлар муаммоси // Фарғона водийси табиатидан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Наманган, июнь 2014. – Б. 6-9.
26. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 1-жилд. А – Бешбалиқ / Таҳрир ҳайъати: М.Аминов, Б.Аҳмедов, Ҳ.Бобоев ва бошқ. – Т.: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси», 2000. ISBN: 5-89890-160-4. – Б. 351.
27. The World book encyclopedia: Encyclopedia. – Chicago: "World book", 1994. – ISBN 0-7166-0094-3.